



**“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB TIZIMIDA KREDIT
TA’MINOTI BILAN ISHLASH TARTIBI**

Toshkent – 2026

Mazkur Tartibi O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Garov reyestri to'g'risida"gi Qonunlari "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish Tartibi" (ichki ro'yxat raqami: 638, 2025-yil 21-fevral), "Bank xizmatlarini iste'molchilar bilan munosabatlarda amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat: Adliya vazirligi №3030, 02.07.2018) hamda boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib "O'zsanoatqurilishbank"ATB (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida ta'minot turlari, unga qo'yiladigan talablar, ta'minotni baholash, bahosini kelishish, bozor qiymatini aniqlash, diskont qo'llash, uni rasmiylashtirish, ta'minot tarkibidan chiqarish, tarkibiy bo'linma (markaz) larning vazifalari taqsimoti hamda ta'minot bilan ishlashga oid boshqa qoidalarni belgilaydi.

2. Tartibning asosiy maqsadi Bank tizimida kreditlash xizmatlarining ta'minoti sifatida likvidlik ta'minotlar olinishini ta'minlash, ta'minotlarni rasmiylashtirish, kredit garov obyektini almashtirish jarayonida bosqichma-bosqich ozod qilishda tarkibiy bo'linmalarning vazifalarini taqsimlash orqali ularni rasmiylashtirishni optimallashtirishdan iborat.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

asosiy majburiyatga oid shartnoma (keyingi o'rinlarda – kredit shartnomasi) – kredit tavakkalchiligiga ega bank mahsulotlarini taqdim etish bo'yicha Bank va mijoz o'rtasida tuziladigan yozma bitim. Bunday bitimlarga predmetiga ko'ra kredit shartnomasi (mijoz – qarzdor), faktoring shartnomasi (mijoz-qarzdor/debitor), bank kafolati shartnomasi (mijoz – prinsipial), sessiya shartnomasi (qarz oluvchiga nisbatan talab qilish huquqini qo'lga kirituvchi Bank-sessionariy), lizing shartnomasi (mijoz – lizingga oluvchi) va boshqalar kiradi;

Bank tarmog'i – kredit tavakkalchiligi limitini belgilash yoki o'zgartirish, kredit mahsulotini taqdim etish yoki kredit bitimining dastlabki shartlarini o'zgartirish (shu jumladan to'lov muddatiga o'zgartirish kiritish) bo'yicha mijozga xizmat ko'rsatuvchi Bank xizmatlari ofisi va/yoki Bank xizmatlari markazi, shuningdek Korporativ markaz, O'rta biznes markazi va/yoki Premium banking markazi hamda unga bo'ysunuvchi Bankning alohida tarkibiy bo'linmalari.

garovga qo'yuvchi – ashyoning (ko'char, ko'chmas mol-mulk) mulkdori yoki garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs;

garovga oluvchi – Bank va uning hududlardagi tarmoqlari;

garov/ipoteka shartnomasi – mol-mulk obyektini kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish bo'yicha tomonlar o'rtasida imzolanadigan, kredit shartnomasiga asosan mijoz/birgalikda qarz oluvchilarning Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan bitim;

garovga taqdim etilayotgan mol-mulklarni bahosini kelishish komissiyasi (keyingi o'rinlarda – baholash komissiyasi) – Bank tizimida kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etilayotgan obyektlarning qiymatini amaldagi qonunchilik va Bankning ichki qoidalariga asosan kelishish komissiyasi;

Garov markazi – garov mol-mulklari qiymatini aniqlash, garov monitoringini amalga oshirish va nazorat qilish, shuningdek kredit majburiyatlari to'liq so'ndirilgan garov mulklarini tegishli axborot tizimlari orqali garovdan ozod qilish vazifalarini bajaruvchi Bankning alohida

tarkibiy bo'linmasi.

garov reyestri – mijozlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek mijozning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda mijoz o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi;

garov bahosini kelishish dalolatnomasi – garovga taqdim etilayotgan ko'char/ko'chmas mulklarni joyiga chiqqan holda ko'rib o'rganish natijalariga ko'ra garov qiymatini mazkur Tartibda belgilangan diskontlar doirasida o'zaro kelishgan holda mijoz/mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs va Bank tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjat;

kredit bitimi – kredit mahsulotlarini (kredit, lizing, faktoring, kafolat va b.) taqdim etishda Bank va mijoz o'rtasida vujudga keladigan barcha huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar;

kredit mahsuloti – Bank tomonidan mijozlarga ma'lum bir shartlarda ko'rsatiladigan kredit tavakkalchiligiga ega bo'lgan moliyaviy xizmat yoki operatsiya (kredit ajratish yoki kredit liniyasini ochish, hujjatli operatsiyalarni amalga oshirish (bank kafolati berish, qoplanmagan akkreditiv ochish va b.), faktoring, lizing va shu kabilar;

kredit-ta'minot hujjatlari – kredit shartnomalari, ta'minotga oid shartnomalar, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek kreditlash xizmati taqdim etilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

mijoz – Bank bilan kredit munosabatlariga kirishgan yoki kirishmoqchi bo'lgan yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi subyekt (yakka tartibdagi tadbirkor, oilaviy tadbirkorlik, dehqon xo'jaligi va b.), jismoniy shaxs yoki mijozlar guruhi;

mas'ul xodimlar – ta'minot sifatida garovga taqdim etilishi ko'zda tutilgan mulkni amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki hujjatlariga asosan joyiga chiqqan holda dastlabki tarzda o'rganuvchi Bank tarmog'ining garov mulki bilan shug'ullanuvchi xodimlari;

vakolatli organ – kredit tavakkalchiligiga ega operatsiyalar bo'yicha kredit qarorlarini qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan Bankning boshqaruv organlari, boshqa vakolatli organlari, shu jumladan mas'ul xodimlari guruhi.

2-bob. Kredit bitimi majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng garovga olingan mulklarni garovdan ozod etish bilan bog'liq amaliyotlar

4. Kredit bitimi bo'yicha kredit majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng ta'minotlar bekor qilinadi.

Garov markazi kredit shartnomasiga asosan kredit majburiyatlari to'liq so'ndirilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha:

garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;

garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reestridan chiqarish choralarini ko'rishi shart.

5. Garov markazi mas'ul xodimi bank operatsiya kuni boshiga ta'minot sifatida ko'char va ko'chmas mulk garovi taqdim etilgan kredit bitimi bo'yicha majburiyatlarning to'liq so'ndirilganligi yuzasidan kredit portfeli asosida solishtirma tekshiruvdan o'tkazadi.

6. Kredit bitimi bo'yicha majburiyatlari to'liq so'ndirilgan jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokreditlar, birlamchi ipoteka kreditlari bo'yicha ta'minot Bank tarmoqlari tomonidan www.garov.uz sayti orqali garovga olingan bo'lsa, Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan iABS dasturi orqali garov reyestri yozuvi o'chiriladi va saytdan garov taqiqi yechiladi.

7. Notarial tasdiqlangan ko'char va/yoki ko'chmas mulk(lar) garovi shartnomalari ostida taqdim etilgan kredit mahsulotlari bo'yicha kredit majburiyatlari to'liq so'ndirilgan taqdirda:

a) mulk 2019-yil 1-yanvar va undan oldin garovga olingan bo'lsa, Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat loyihasi tayyorlanadi hamda Garov markazi direktori/direktor o'rinbosariga tasdiqlash uchun yuboriladi, "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Garov markazi direktori tasdig'i olingandan so'ng iABS dasturi orqali garov reyestridagi garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuv o'chiriladi;

b) mulk 2019-yil 1-yanvar va undan keyin garovga olingan bo'lsa, Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda Garov markazi direktori/direktor o'rinbosariga tasdiqlash uchun yuboriladi, "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Garov markazi direktori/direktor o'rinbosari tasdig'i olingandan so'ng, iABS dasturi orqali garov reyestridagi yozuvi o'chirilib, Adliya vazirligining "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bank.birdarcha.uz platformasi yoki iABS dasturi orqali garov taqiqi Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan yechiladi.

3-bob. Kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish)

8. Bank tizimida kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki qoidalari hamda mazkur Tartibga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirishda (o'zgartirishda) kredit bitimi bo'yicha dastlabki yoki so'nggi belgilangan mulkiy va nomulkiy ta'minotlar nisbati o'zgarmasligi lozim ("Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi bundan mustasno).

9. Mijozning kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirish murojaati tegishli tarkibiy bo'linmalar (bank tarmoqlari) tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank kredit siyosati, boshqa ichki qoidalari va ushbu Tartib talablariga zid kelmasligi o'rganib chiqilishi lozim.

10. Mijoz (garovga qo'yuvchi) ning kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) bo'yicha arizasi Bank tarmog'iga kelib tushgan kun bilan ro'yxatga olinadi. Arizalar elektron tarzda ham qabul qilinishi mumkin.

Agar, mijoz (garovga qo'yuvchi) tomonidan bankka og'zaki, telefon orqali yoki elektron axborot vositalari orqali murojaat qilingan taqdirda, ushbu murojaatlarga Bank tomonidan ham og'zaki, telefon orqali yoki elektron axborot vositalari orqali javob qaytarilishi lozim.

11. Kredit ta'minotidagi mulklarni qisman ozod etish bo'yicha vakolatli organ qarori hamda tegishli kredit-ta'minot hujjatlariga o'zgartirish kiritilgandan so'ng, ushbu hujjatlar Garov markaziga taqdim etiladi.

Garov markazi tomonidan tegishli hujjatlar o'rnatilgan tartibda o'rganilgandan so'ng kredit

ta'minotidagi ozod etilishi so'ralgan mulk 1 bank ish kuni ichida kredit ta'minoti tarkibidan chiqariladi (agar vakolatli organ qarorida qo'shimcha shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu shartlar bajarilgandan so'ng amalga oshirilishi lozim).

12. Notarial tasdiqlangan ko'char va/yoki ko'chmas mulk(lar) garovi shartnomalari ostida taqdim etilgan kredit mahsulotlari bo'yicha kredit ta'minotini qisman ozod etishda:

a) mulk 2019-yil 1-yanvar va undan oldin garovga olingan bo'lsa, Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat loyihasi tayyorlanadi hamda Garov markazi direktori/direktor o'rinbosariga elektron raqamli imzosi (ERI) bilan tasdiqlash uchun yuboriladi, "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Garov markazi direktori tasdig'i olingandan so'ng, iABS dasturi orqali garov reyestrtdagi garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuv o'chiriladi;

b) mulk 2019-yil 1-yanvar va undan keyin garovga olingan bo'lsa, Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda Garov markazi direktori/direktor o'rinbosariga elektron raqamli imzosi (ERI) bilan tasdiqlash uchun yuboriladi, "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Garov markazi direktori/direktor o'rinbosari tasdig'i olingandan so'ng, iABS dasturi orqali garov reyestrtdagi yozuvi o'chirilib, Adliya vazirligining "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bank.birdarcha.uz platformasi yoki iABS dasturi orqali garov taqiqi Garov markazi mas'ul xodimi tomonidan yechiladi.

Garovga olingan mulklarni garovdan chiqarish Garov markazi direktori/direktor o'rinbosarining imzosi yoki elektron raqamli imzosi (ERI) asosida amalga oshirilishi shart.

13. Vakolatli organ tomonidan mijoz (garovga qo'yuvchi)ning arizasi rad etilgan taqdirda 1 bank ish kunidan kechiktirmasdan rad etish asoslari ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda javob xati yuboriladi.

4-bob. Ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) va boshqa hollarda qisman ozod etish

14. Mijoz (garovga qo'yuvchi) qisman ozod etish yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) haqidagi ariza bilan Bank tarmog'iga murojaat qilishda arizasiga mazkur Tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilishi lozim.

15. Bank tarmog'i rahbari ariza bilan tanishib chiqib, arizaga tanishuv belgisini qo'yadi (tanishuv belgisi elektron tarzda ham bo'lishi mumkin) hamda o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish uchun mijoz segmentidan kelib chiqib mijoz bilan ishlovchi biznes menejerga yo'naltiradi.

16. Mijoz (garovga qo'yuvchi)ning arizasi Bank tarmog'iga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi lozim.

17. Kredit ta'minotini qisman ozod etish yoki ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) bo'yicha mijozga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

- 1) kredit bitimi bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzadorligi bo'lmasligi;
- 2) o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhining Bank tizimida muddati o'tgan kredit qarzadorliklari mavjud bo'lmasligi;
- 3) 2-sonli kartoteka hisobvarag'ida qarzadorlik mavjud bo'lmasligi;
- 4) KATM onlayn ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhining Bank tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan joriy (amaldagi) kreditlari mavjud bo'lmasligi;

5) oxirgi 12 oyda Bank tizimida oydan oyga o'tgan kredit to'lovlari (asosiy qarz va/yoki foiz) 2 martadan ko'p bo'lmasligi;

6) Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko'p bo'lmasligi;

7) Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kreditga hisoblangan foiz qarzdorligi bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko'p bo'lmasligi;

8) Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo'yicha shartlari qayta ko'rib chiqilgan hisobvaraqlarida qoldiq mavjud bo'lmasligi;

9) Bank tizimida mavjud kreditlar bo'yicha muddati uzaytirilgan foiz qarzdorliklari qoldig'i mavjud bo'lmasligi;

10) Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan vakolatli organ tomonidan belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari mavjud bo'lmasligi;

11) Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmasligi lozim (maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv Tarmoqlardagi monitoring xizmati maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi, bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi);

12) mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan qarzdorliklari bo'lmasligi;

13) mijozga nisbatan oxirgi 3 yilda kredit shartnoma shartlari bajarilmaganligi yuzasidan sudga murojaat qilinib, ular qisman/to'liq qanoatlantirilgan bo'lmasligi lozim.

Ushbu talablar mahsulot pasporti doirasida ta'minot tarkibini almashtirish (o'zgartirish) yoki kredit ta'minotini qisman ozod etish (shu jumladan, garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish) tatbiq etilmaydi.

18. Mas'ul xodimlar ariza yuzasidan dastlab ta'minot tarkibidagi barcha mulkiy garovlar joyiga chiqqan holda o'rganadi, ushbu garov obyektlari holatini, dastlab kredit mahsuloti taqdim etilgunga qadar olingan fotosuratlar asosida solishtirib, garov mulkiga ziyon yetkazilmaganligini tekshiradi.

19. Ariza va taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqib, mijoz bilan ishlovchi biznes menejer 2 bank ish kunidan kechiktirmagan holda xulosa tayyorlaydi.

Bunda xulosa mijoz bilan ishlovchi biznes menejer va Bank tarmog'i rahbari tomonidan imzolanishi lozim. Xulosa asoslantirilgan va ijobiy bo'lishi shart.

20. Ta'minot tarkibidagi mol-mulklar almashtirilishi (o'zgartirilishi)da, garov obyekti o'rniga taqdim etilayotgan mol-mulk mazkur Tartib qoidalariga asosan Baholash komissiyasi yoki mas'ul xodimlar tomonidan o'rganib chiqiladi va 2 bank ish kunidan kechiktirilmagan holda garov bahosini kelishish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bunda, Baholash komissiyasi yoki mas'ul xodimlar tomonidan ta'minotdagi mol-mulk narxi oshirilishi ko'zda tutilgan hollar (narx oshirilishining asoslari ya'ni qo'shimcha qurilish qilinganligi, bozordagi narxning oshishi va b.) o'rganilishi lozim.

21. Arizaga zarur hujjatlar to'liq ilova qilinmagan taqdirda va/yoki boshqa holatlar yuzasidan ariza kelib tushgan kundan e'tiboran 5 bank ish kuni ichida Bank tarmog'i rahbarining imzosi bilan bu haqda mijoz (garovga qo'yuvchi) ni yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

22. Bank tarmog'i tomonidan mijoz (garovga qo'yuvchi)ning arizasi, mijoz bilan ishlovchi

biznes menejerning asoslantirilgan xulosasi va tegishli hujjatlar Garov markaziga “iABS” dasturiy ta’minoti orqali yuboriladi.

23. Garov markazi tomonidan kredit ta’minotini qisman ozod etish yoki ta’minot tarkibini almashtirish (o’zgartirish) masalasi amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank kredit siyosati, boshqa ichki qoidalar va ushbu Tartib talablari asosida masalasi 3 bank ish kuni ichida o’rganiladi.

O’rganish natijalariga ko’ra Garov markazi tomonidan ta’minot tarkibini almashtirish (o’zgartirish) masalasi bo’yicha xulosa rasmiylashtiriladi va masala vakolatli organ muhokamasiga kiritiladi.

24. Garov markazi tomonidan kredit ta’minotini qisman ozod etish yoki ta’minot tarkibini almashtirish (o’zgartirish) masalalari “iABS” dasturiy ta’minoti orqali taqdim etilgan skaner qilingan fayllar (hujjatlar) asosida o’rganiladi. Ushbu hujjatlarning va ulardagi imzolarning haqqoniyligi yuzasidan ularni taqdim etgan Bank tarmog’i xodimlari javobgar hisoblanmaydi.

25. Mijoz (garovga qo’yuvchi) ning arizasi vakolatli organ tomonidan ko’rib chiqilib, tegishli (ijobiy yoki salbiy) qaror qabul qilinganda, bu haqda Bank tomonidan 3 ish kunidan kechiktirmasdan mijoz (garovga qo’yuvchi) ga javob xati yuboriladi (ariza rad etilgan taqdirda rad etish asoslari ko’rsatilgan bo’lishi lozim).

26. Tegishli vakolatli organ qarori rasmiylashtirilgandan so’ng Bank tarmog’i xodimlari/mas’ul xodimlar tomonidan kredit-ta’minot hujjatlariga (kredit shartnomasi, ta’minot bilan bog’liq hujjatlar va b.) o’zgartirish kiritish ishlari olib boriladi. Bunda ushbu hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog’liq ishlar mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan amalga oshiriladi.

27. Barcha rasmiylashtirilgan hujjatlar iABS dasturidagi shartlari o’zgartirilayotgan kredit bitimiga kiritilishi lozim.

5-bob. Yakuniy qoidalar

28. Tartib Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Tartib talablarini buzgan Bank xodimlari amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

30. Bank xodimlari ushbu Tartib bo’yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o’zini tiyishi lozim, jumladan:

korruption harakatlarni to’liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta’minlashni to’liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to’g’risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o’rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

31. Bank xodimlari manfaatlar to’qnashuvi bilan bog’liq munosabatlarda O’zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi Qonuni talablariga qat’iy rioya qilishlari shart.

32. Mazkur Tartibda nazarda tutilgan qoidalarining amaldagi qonunchilikka zid bo’lmagan qismi amalda bo’ladi. Agar, ushbu Tartibda belgilangan qoidalar O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan zid bo’lsa, Tartibga o’zgartirish kiritilmaguncha amaldagi qonunchilikka rioya qilinishi lozim.

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash
Tartibi”ga 1-Ilova**

Kreditning ta’minoti o‘zgartirilganda:

- 1) Qarzdor arizasi;
 - 2) Qarzdor ta’sischilar qarori (*garovdan ozod etish holatlari bundan mustasno*);
 - 3) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs (korxona) ta’sischilarining kredit ta’minoti sifatida mulkni garovga berish yuzasidan roziligi;
 - 4) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs korxonaning ta’sis hujjatlari (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
 - 5) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs korxona direktori va bosh buxgalterining pasport nusxasi (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
 - 6) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxona ta’sischilarining kafillik taqdim etish bo‘yicha roziligi;
 - 7) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxonaning Oxirgi hisobot davri uchun Balans (F1) va moliyaviy natijalar (F2) to‘g‘risidagi hisobotlari (*Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasidan onlayn tarzda olingan holatlar bundan mustasno*);
 - 8) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxonaning ta’sis hujjatlari (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
 - 9) Yangi taqdim etilayotgan Kafil korxona direktori va bosh buxgalterining (*agar mavjud bo‘lsa*) pasport nusxasi (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
 - 10) Yangi taqdim etilayotgan Kafil korxonaning boshqa banklardagi hisob raqamlari bo‘yicha oxirgi 12 oylik aylanmasi to‘g‘risida ma’lumot (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*).
- Yuqorida ko‘rsatilgan standart hujjatlar to‘plamidan tashqari mijozdan dastlabki o‘zgartirish turidan kelib chiqib boshqa hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.